

## TIL TA'LIMIDA PRAGMALINGVISTIKANING UMUMIY KATEGORIYALAR

**Sattorova Feruza Elmurodovna,**  
Samarqand davlat chet tillar instituti  
Katta o'qituvchi, doktorant, PhD  
ORCID: 0009-0005-9771-5227

**Annotatsiya.** Chet tilida ravon so'zlasha olish har bir o'quvchining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, unga erishish faqat til tuzilishi haqida bilimlarga ega bo'lishni emas, balki to'plangan lisoniy belgilarni turli kontekstda samarali va o'rinli qo'llashni taqozo qiladi. Aynan tilni real hayotda qo'llash uchun pragmatik qobiliyatni rivojlantirishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Pragmatik qobiliyatning tarkibiy qismlarini tatbiq qilish orqali esa chet tili ta'lim mazmunini boyitishga erishish mumkin.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya, pragmalingvistika, sotsiopragsmatika, nutq aktlari, kontekst, presuppozitsiya.

**Abstract.** Being able to speak a foreign language fluently is one of the main goals of every student, and achieving it requires not only knowledge of the structure of the language, but also the effective and appropriate use of the accumulated linguistic features in different contexts. It is precisely in order to use the language in real life that the development of pragmatic abilities becomes necessary. By implementing the components of pragmatic competence, it is possible to enrich the content of foreign language education.

**Keywords:** communicative competence, pragmatic competence, pragmalinguistics, sociopragmatics, speech acts, context, presupposition.

**Аннотация.** Свободное владение иностранным языком — одна из главных целей каждого студента, и для её достижения требуется не только знание структуры языка, но и эффективное и уместное использование накопленных языковых особенностей в различных контекстах. Именно для использования языка в реальной жизни становится необходимым развитие прагматических навыков. Внедрение компонентов прагматической компетенции позволяет обогатить содержание обучения иностранному языку.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, прагматическая компетентность, прагмалингвистика, социопрагматика, речевые акты, контекст, пресуппозиция.


**KIRISH.** Xorijiy til o'qituvchilarining maqsadi shunchaki o'rganuvchilarda lisoniy ma'lumotlarni shakllantirish emas, balki ularni o'rganilayotgan tilda real hayotda muloqotga kirisha olish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo'lishi lozim. Zero, muloqotning ikki tomoni mavjud bo'lib, ular tilni bilish (lingvistik kompetensiya) va tildan foydalanish (pragmatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalar)dan iboratdir. Bu to'rtala guruh kompetensiyalar oxirgi yarim asrdan buyon til ta'limidagi asosiy tushuncha kommunikativ kompetentlik tushunchasining subkompetensiyalari hisoblanadi. Chet tilida kommunikativ kompetent shaxsni turli kontekstlarda xabarni yetkazish va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarni inobatga olgan holda samarali muloqot qila oladigan kommunikator sifatida ta'riflash mumkin.

**Adabiyotlar tahlili.** Pragmalingvistika va pragmatik kompetensiya masalalari zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ yondashuvning muhim tarkibiy qismi sifatida keng tadqiq etilgan. Devid Kristal pragmatikani tilning ijtimoiy kontekstda qo'llanishini o'rganuvchi soha sifatida izohlab, muloqot jarayonida til vositalarining funksional

ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. J.Jalolov va hammualliflarning metodik qarashlarida esa kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda pragmatik va sotsiolingvistik bilimlarning uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Shuningdek, G.Kasper, Sh.Safarov hamda N.Mahmudov va A.Nurmonovlarning ilmiy tadqiqotlarida nutqiy aktlar, kontekst, presuppozitsiya va implikatura kabi pragmatik kategoriyalarning til ta'limidagi o'rni hamda ularning kommunikativ samaradorlikni ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda pragmalingvistikaning umumiy kategoriyalarini tahlil qilishda tavsifiy, qiyosiy va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nutqiy aktlar, kontekst, presuppozitsiya va implikatura bilan bog'liq nazariy qarashlar ilmiy manbalar asosida o'rganilib, ularning til ta'limidagi funksional ahamiyati tahlil qilindi. Shuningdek, kommunikativ yondashuv asosida pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi til birliklari va muloqot vaziyatlari lingvodidaktik nuqtayi nazardan baholandi.

**Tahlillar va natijalar.** Kommunikativ kompetensiya atamasiga berilgan ta'riflar turli tuman bo'lib, ularni birlashtirib turadigan asos muloqotga ta'sir qiliadigan turli ijtimoiy omillarni o'rinli baholagan holda o'zaro aloqa alamshish qobiliyatidir. Kommunikativ atamasi yurtimiz olimlari tomonidan ham yetarlicha tadqiq etilgan. Xususan, chet tilini o'qitish metodologiyasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borgan ilm ahllaridan biri J.Jalolov kommunikativ qobiliyatni shakllantirishning quyidagi milliy modelini taklif qildi [2.16]:




### 1.2-rasm. Kommunikativ qobiliyatni shakllantirishning milliy modeli

Bu chizmada sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalar o'zaro aloqador, biri ikkinchisini taqozo etadigan tushunchalar sifatida tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida biz pragmatikaning paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari, shuningdek, uning ichki bo'linishlari haqida mulohaza yuritdik. Mulohazalarimizdan kelib chiqib pragmatikaga berilgan ta'riflardan eng ko'p havola keltirilgan Devid Kristalning pragmatikaga nisbatan bergan izohini keltirishga qaror qildik: "Pragmatika – tilni undan foydalanuvchilar nuqtayi nazari bilan o'rganish, boshqacha aytganda, ijtimoiy o'zaro munosabatlarda tilni qo'llashda ular uchrashi mumkin bo'lgan cheklovlar, ularning muloqot jarayonida tildan foydalanuvchi boshqa ishtirokchilarga ta'sirini o'rganishdan iboratdir" [1.287]. Bu ta'rifdan tildan kontekstda foydalanishga ko'proq urg'u bersa-da, lisoniy tanlovlarning suhbatdoshga yoki tinglovchiga ta'siri masalasida faqat ijtimoiy madaniy muhitga emas, balki tildan foydalanuvchining tanlovi muhimroq ekanligi alohida ta'kidlanadi. Oxirgi yigirma yillar atrofida aynan tillararo pragmatikaning rolini o'rganish borasida bajarilgan ishlar tahlilidan aniqlandiki, hamma olib borilgan tadqiqotlar pragmatikani kontekstda tildan to'g'ri foydalanish namunasi asosida birlashtirsada, hanuz pragmatikaning nimalardan tashkil topganligi masalasi hali ochiqligicha qolmoqda. Shuningdek, bu kompetensiya kommunikativ qobiliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lishiga qaramay, bu atamaga yuqorida aytib o'tganimizdek to'liq, keng qabul qilingan ta'rif mavjud emas. Ishimiz pragmatikani o'qitish yuzasidan ekan, aniq bir umumiy ta'rifsiz o'qituvchilar o'z o'quvchilarini ikkinchi chet tilida pragmatik jihatdan barkamol tarbiyalash uchun nima kerakligini bilishi qiyin. Bu savolga javob topish maqsadida pragmatikani o'qitish sohasida olib borilgan so'nggi ishlarni tizimiy o'rganib, hozirgi kunda ingliz tili o'qitishda asosiy yo'nalish bo'lgan kommunikativ til o'qitish tarkibida pragmatikaning o'rni, turli kommunikativ modellarda pragmatikaning komponentlari, umumiy til bilimida pragmatik tamoyillar va pragmatik-funksional bilimlarning ahamiyatini belgilab oldik.

Avvalambor, deyarli barcha pragmatika sohasi bo'yicha bajarilgan ishlarda pragmatika o'zaro aloqador ikki qismdan iborat deb qaraladi: pragmalingvistika va sotsiopragsmatika.



### 1.3-rasm. Pragmatikaning tarkibiy qismlari

Til foydalanuvchilari pragmatik jihatdan samaraga erishishi uchun ular o'zlarining turli maqsadlariga muvofiq bu ikki sohadagi elementlarni ko'rib chiqib tanlash va

birlashtirish imkoniyatlariga ega bo'lishlari kerak [3.41]. O'z navbatida, pragmatikaning tarkibiy qismi bo'lgan ushbu tuzilmalar ham bir necha muhim tushunchalarni qamrab oladi. Xususan, pragmatik bilimni shakllantirish muammosi muhokamasidan oldin bu bilim bilan bog'liq bo'lgan muhim tushunchalar yuzasidan ba'zi mulohazalarni havola etamiz.

Nutqiy akt nazariyasi yuzasidan dastlabki ishlar J.Ostin va J.Syorllar tomonidan olib borilgan bo'lib, ular tilga faoliyat nuqtayi nazaridan qarab, so'zlash yoki yozish orqali ma'lum ijtimoiy vazifalar bajariladi degan xulosaga kelishdi. Shunday ekan nutqiy akt "so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga murojaatidir"[4.71]. Zotan, gapirish orqali biz biror narsani bajaramiz. Masalan, nutqiy aktlar orqali kechirim so'rash, iltimos va buyruq qilish, rad etish kabi turli- tuman vazifalar bajariladi, nutqiy akt "uch bosqichli faoliyatni taqozo qiladi." [4.75]

Lokutiv akt – grammatik bilimni taqozo qiladigan bosqich bo'lib, bunda biz muloqot uchun mazmundor jumlani yaratamiz va talaffuz qilamiz.

Illokutiv akt – tuzilgan jumla orqali shaxslararo munosabatda maqsadning voqelanishidir: xabar berish, taklif qilish, rad etish kabi.

Perlokutiv akt – nutqiy aktning ikkinchi bir shaxsga ta'sir o'tkazishidir.

Nutqiy akt agar ochiqdan ochiq ma'lum maqsadni anglatadigan jumlar ishtirokida tuzilsa, boshqacha aytganda, illokutiv fe'llar orqali muloqotga kirishilsa, bunday maqsad zohiran ifodalangan nutqiy tuzilmani performativlar deb nomlanadi; masalan, *Vazifani o'z vaqtida bajarishingizni talab qilaman.* Bunda *talab qilaman* – illokutiv fe'ldir.

Ba'zan nutqiy aktlarda tuzilgan jumlaning lug'aviy ma'nosi bilan undan ko'zlangan maqsad o'rtasida tafovutlarga duch kelamiz. Bunday bilvosita tuzilgan nutqiy aktlarda ifoda va mazmun o'tasidagi munosabat masalasini to'g'ri tushunish pragmatik bilimga ehtiyoj tug'diradi, ya'ni so'zlovchining tanlagan nutqiy aktdan maqsadi va tinglovchining uni tushuna olish qobiliyatini taqozo etadi, masalan:

– *May I have a glass of water?*

Bu nutqiy aktdan tinglovchi so'zlovchining chanqaganligini fahmlay oladi. Bunda shakl butunlay boshqa ko'rinishda anglashiladigan ma'no (*The speaker is thirsty*) esa boshqa ko'rinishdadir. Ba'zan ifoda va mazmun o'rtasida mavjud kontekst ko'prik vazifasini bajarib, gapning illokutiv kuchini ochishga yordamga keladi.

Nutq vaziyati bilan kontekst pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham sintaktik qurilma ifodalagan propozitsiyaning so'zlovchilarga tushunarli bo'lishi uchun nutq vaziyat va kontekst zarur bo'lgan joyda pragmatikaga ehtiyoj ortadi [5.10]. Yuqorida ta'kidlanganidek, kontekst ma'no yaratishda asosiy rol o'ynaydi va kontekst – har qanday pragmatik nazariyaning langaridir. An'anaviy tilshunoslikda kontekst – nutq aytiladigan zamon, makon, ishtirokchilar, suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlar va ular o'rtasidagi oldinroq aytilgan gaplar nutqiy vaziyatning bevosita belgilari sifatida ta'riflanardi. Keyinchalik kontekstning kognitiv, lingvistik,

ijtimoiy va madaniy xususiyatlari ajratib ko'rsatilib, nazariy tahlilarni ushbu turli nuqtayi nazardan olib borish kerakligi ta'kidlandi. Garchi ko'pchilik nazariy jihatdan ushbu turli kontekstlar o'rtasidagi farqlarni anglab yetsa ham, odatda tildan foydalanishda ushbu turli qismlar elementlarini o'z ichiga olishni taqozo etadi. Demak, kontekst asosida ma'noni anglash – bunda ifodalangan nutq bo'lagini kontekst yordamida to'g'ri tushunish va ma'lum vaziyatda munosib nutqiy akti tanlashdan iboratdir. Masalan, so'zlovchining uyida mehmon bo'lgan tinglovchiga nisbatan *Could you bring me a glass of water?* murojaatini ishlatish o'zaro muloqotning samarasiga putur yetishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday nutqiy vaziyatda albatta so'zlovchi boshqa nutq shaklidan foydalangani ma'qul deb hisoblaymiz. Yoki yo'lda ikki do'st uchrashib qolib, ular o'rtasidagi o'zaro muloqotda birining:

– *How are you?* – jumlasini orqali ahvolini so'rash bilan boshlasa ikkinchisining:

– *Ah lovely weather today!* javobi o'zaro fikr amashishda grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan gaplardan foydalanilishiga qaramay, kontekstga nomunosib nutq bo'lagi muloqotning davom etishiga to'siq bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Yoki muloqot davomida aytilgan nutq bo'lagi yordamida ko'rinmaydigan qo'shimcha ma'noning mavjudligi ham kontekstga qarab aniqlanadi.

Masalan,

– *Could you close the window?* nutq bo'lagi nafaqat iltimosni balki ko'rinmaydigan qo'shimcha ma'noni ham beradi (*maybe it is too noisy outside or the speaker is freezing*). Bu qo'shimcha ma'noning qay biri mosligini albatta, tinglovchi nutq vaziyatidan aniqlab oladi.

Pragmatikaning to'rtinchi o'rganish sohasi esa deiksis bilan bog'liq bo'lib bunda nutqning vaqt va masofaga nisbiy bog'liqligi o'rganiladi. Masalan, *take this*, kabi nutq bo'lagi faqatgina aytilayotgan gap kontekstiga yaqin turgan tinglovchiga nisbatan ishlatilishi mumkin.

Pragmatikaning o'rganish sohalaridan eng muhimi tag bilim (presuppozitsiya)dir. Bunda so'zlovchi va tinglovchining oldindan umumiy bilim manbaiga ega bo'lishi bevosita ifodalanadigan axborotning so'zlovchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Pragmatik presuppozitsiya hodisasi talqinida ikki yo'nalish mavjud: nutqiy harakatning jo'yaliligi va samaradorligi asosiy mezon sifatida qabul qilingan. Ijro etilayotgan nutqiy faoliyat va qo'llanilayotgan lisoniy tuzilmalar jo'yali va o'rinli bo'lgan taqdirdagina muloqot natijali kechganini bilamiz.

Ikkinchi yo'nalishdagi talqinda pragmatik presuppozitsiya muloqot ishtirokchilarining axborot mavzusi, predmeti haqidagi umumiy bilimi va ishonchi sifatida qaraladi.

So'zlovchining bilvosita, so'zma-so'z bo'lmagan tarzda yetkazilgan niyatini tushunish qobiliyati pragmatik implikaturadir. Bunda niyat ko'chirma yashirin tarzda ataylab qo'llaniladi. Implikaturaning presuppozitsiyadan farqi, u doimiy bo'lmagan,

matnda tez o'zgarib turadigan, hatto yo'qolishi mumkin bo'lgan ma'no, mazmun elementidir.

Masalan,

– *Did you like the film?*

– *I was glad when it was over.*

**Xulosa.** Shunday qilib, biz pragmalingvistikaning umumiy kategoriyalari haqida qisqacha ma'lumot berish orqali ularning muloqotdagi ahamiyatini va pragmatik qobiliyatni shakllantirishda bu kategoriyalar yuzasidan bilimlarga ega bo'lish zaruriyatini qayd etdik. Shuningdek, muloqotning samarali kechishini ta'minlashda bir qancha sotsiopragmatik qoidalar ham mavjud bo'lib, bunda P.Graysning "hamkorlik tamoyili", hurmat va xushmuomalalik tamoyillari, jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy masofa va rollar kabi bir qancha tushunchalar izohi zarurdir, ishimiz maqsadi til ta'limida pragmatikani o'qitishning samarali yo'llarini ishlab chiqish ekan, o'qitish materillarini shakllantirish masalasi muhokamasi jarayonida bu kategoriyalariga alohida to'xtalib o'tamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press, Cambridge, 2019. Part V- p.287.
2. J.J.Jalolov, G.T. Mahkamova, Sh.S Ashurov. English Language Teaching Methodology. – T.: "Fan va texnologiya", 2015. – P.16.
3. Kasper G. Variation in interlanguage speech act realization // S. Gass, C. Madden, D. Preston, L.Selinker. Variation in second language acquisition: Discourse and pragmatics. – Clevedon.: Multilingual Matters, 1989. – P.41.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.71.
5. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi: (Sintaksis) – T.: O'qituvchi, 1995. – B.10.